

“O’RTA OSIYO XALQ AMALIY SAN’ATIDAGI NAQSHLARDA RAMZIY MA’NOLAR”

Guljahon Jalolova

SHDPI “tasviriy san’at va
amaliy bezak san’ati” yo’nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada badiiy naqqoshlik yo’nalishida ishlangan naqshlarning har birining o’ziga xos ramziy ma’nolari va xalq amaliy san’atidagi barcha yo’nalishlarda foydalanilgan naqshlarning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Ma’lumot o’rnida shuni aytib o’tish joizki, naqqoshlik san’ati insoniyat yaratilgandan buyon, asrlar davomida sayqallanib borayotgan, eng muhimi esa bugungi kungacha saqlanib qolgan haqiqiy san’at turidir.

Kalit so'zlar: xalq amaliy san’ati, naqsh, naqqoshlik, ramziy ma’nolar.

Ma’nosiz so’z bo’lmaganidek, ma’nosiz naqsh ham yo’q

(S. Bulatov)

O’tmishdan to bugungi kunga qadar butun dunyoga ma’lum va mashhur bo’lgan O’zbekiston Xalq amaliy san’ati yillar o’tsa hamki o’zining sir-asrorlarga boy maftunkor jilvasini yo’qotmagan. Ayniqsa, naqqoshlik san’atida yuksak did bilan ishlangan bejirim naqshlar barcha tomoshabinni hayratga solib kelmoqda. Sharq xalqlarida aynan naqqoshlik san’atining paydo bo’lishi va taraqqiy etishining bir qancha sabablarini taxmin qilish mumkin. Bu sabablarga balki diniy qarashlarda tirik mavjudotlarni chizish mumkin emas degan g’oya ilgari surilgan bir paytda odamlar barcha chizgilarini o’simliksimon yoki geometrik shakllar orqali namoyon qilishgan bo’lishlari mumkin. Yana bir sababga ko’ra odamlar aynan naqshlar orqali o’z ramziy so’zlashuv tilini yaratgan bo’lishlari ham mumkin. Bunda har bir naqsh va har bir elementlari o’zining ma’no va mazmuniga ega. Eng oddiy kichkina buyumdan tortib, toki hashamatli binolarning ulkan shift va devorlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi. Buyuk naqqosh ustalar har bir qadimiy obidalarini yoki buyumlarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, tomoshabinga cheksiz zavq bera olish bilan bir qatorda, o’z orzu- umidlarini, tilaklarini, muhabbatlarini, his-tuyg’ularini, kechinmalarini aks ettirishga harakat qilishgan. Naqqosh ota- bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har tomonlama o’rganib chiqishgan. Va shu o’rganishlar natijasini naqshlarda ramziy ma’no sifatida juda go’zal tarzda aks ettirishgan. Rang- barang o’simliksimon va geometrik naqshlar g’oyaviy ma’no va sermazmun kompozitsiya hosil qilgan.

Nozilov Dodoning 1981-yil “Fan va turmush” jurnalida “Naqshlarda kuylangan orzu” deb nomlangan mqolasida bir necha naqshlarning ramziy ma’nolari haqida ma’lumot berilgan. Quyida shu va boshqa naqshlarning alifbosi ustida fikr yuritamiz.

Xalq badiiy bezagidan o‘rin olgan aylana, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak naqshlari tabiat omillari ramzi bo‘lib, ular vafodorlik, baxt, farovon umr, insoniylik belgilari ramzini anglatgan. O‘tmishda har bir xalqda kvadrat shakli- dunyoning to‘rt tomoni, osmon saroy, quyosh farzandi, abadiylik, yorug‘lik ma‘nolarini bildirgan. Firdavsiyning «Shoxnoma» asarida Siyovush qurgan Gang qal‘asi - Siyovushgird shahrini kvadrat tarzda tasvirlab, bu shaharni behisht deb ta‘riflaydi:

Unda unutilgan betoblik so‘zi,

Bu bo‘ston shaharmas, behishtning o‘zi.

Xorazmda esa qadimda imoratlarning peshtoqiga aylana shaklli naqshlar o‘yilgan. Ma‘nosi: yovuz niyatli kishilarning bu naqshga ko‘zi tushsa yovuz niyatidan qaytishi mumkin ekan. Boshqa xalqlarda esa aylana- vafodorlik, kvadrat- do‘stlik, yarim aylana naqsh esa baxt ramzini anglatgan. O‘rta Osiyo naqqoshlik san‘atida romb shaklini ko‘p uchratish mumkin. Olimlarning ta‘kidlashicha, romb ilk tosh davridan ayol, ya‘ni ona yer belgisi hisoblangan. Ayol-nasl, yer esa hosil beradi. Romb serfarzandlik, serhosillik ramzi sifatida e‘zozlangan.

Naqsh arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, gul. tasvir degan ma‘nolarni bildiradi. O‘simliksimon naqshlar, gullar, hayvonlar, qushlar, geometrik shakllarni ma‘lum ketma-ketlikda tartibli takrorlanishi natijasida hosil qilinadigan bezakdir. Xonaning shifti va devorlariga o‘simliksimon naqsh, gul va lolalar tasviri chizilishi, shu xonadon egalariga baxt, sihat-salomatlik shu bilan birga hamma vaqt bu uyda muhabbat hukm surishi istaklari tarannum etilgan. Islom dini taraqqiy etganida daraxt shoxchalari naqshi saodat daraxti, ma‘nosini anglatgan. Unga qadar esa bunday shoxchalar tasviridagi naqshlar manixey dinining ramziy ma‘nosi bo‘lgan.

Badiiy naqqoshlikda nafaqat o‘simliksimon naqshlar hamda gullar shu bilan bir qatorda mevalar ham o‘z shakl va mazmuniga ega. Olma-muhabbat, uzum - ezgulik, anor esa to‘qchilik, to‘kin sochinlik ramzi sifatida qaralgan. Umumlashtirib aytganda, bahor tabiat uyg‘onishi, gullar va o‘simliklar muhabbat ramzini ifodalagan bo‘lsa, kuz faslida shu gul va o‘simliklar sersharbat mevaga aylanishi bu bilan to‘qchilik va baraka ramzini aks ettirgan. Me‘morchilik badiiy bezagida gul va o‘simliklar hamda mevalarning keng ishlatilishi, shu xonadonda muhabbat, baxt, osoyishtalik to‘kin- sochinchilik va baraka bo‘lishi orzusini ifodalagan. O‘zbekistonda naqshlarni o‘qishning dastlabki alifbosini tuzgan, sermahsul, serqirra yetuk olim, ilmiy tadqiqot yo‘lini bosib o‘tgan ziyoli inson S. Bulatov va boshqalar birgalikda yaratgan “Naqqoshlik” kitobida naqshlarni guruhlariga bo‘lib, ramziy ma‘nolarini ko‘rsatib berishgan. Quyida biz eng ko‘p uchratadigan va qo‘llaydigan naqshlarning ramziy ma‘nolari haqida ma‘lumot keltirilgan.

1. Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma‘nolari.

Besh qirrali yulduz – hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh asosi: «Sevimli payg‘ambarimiz bunday buyurganlar: musulmonlik besh narsa ustiga qurilgandir. Allohdan

boshqa hech bir tangri yo‘qligiga va Muhammad (alayhissalom) uning bandasi va elchisi ekanligiga ishonish, namoz o‘qish, zakot berish, ramazon ro‘zasini tutish, hajga borish».

Nuqta- hayotning boshlanishi, tangrining yagonaligi, yaratuvchi va boshqa ma’nolarga ega. To‘g‘ri chiziq- hayotdagi to‘g‘ri yo‘l, hayotning ravonligi. To‘lqin chiziq- hayotning notekisligi, oynning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘uligi. Olti qirrali yulduz- hayotning boshlanishi va oxiri. Tik turgan holatidagi teng tomonli uchburchak- hayotning boshlanishi. Teskari turgan holatida teng tomonli uchburchak - hayotning oxiri. Teng yonli uchburchak - yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq, olam.

2. Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma’nolari.

Islimiy naqshning asosiy elementi bu gullar hisoblanadi. Gul – go‘zallik, muhabbat, yaxshilik, himmat ifodasi. Gul – jannatdan olingan ajoyib ne‘matdir.

Chinnigul- hayot ramzi

Uzum - to‘kin-sochinlik

Kurtak - to‘qchilik, bahor, uyg‘onish, navro‘z

Bog‘lam - baxt boylanishi

Barg- bahorgi uyg‘onish

Qalampir - har xil yomonliklardan va yomon ko‘zlardan asrash

Zirk guli (gulsafsar)- osoyishtalik va umr uzoqlik

Anor- ezgulik, to‘qchilik

Oygul - baxt, iqbol, go‘zallik

Jingalak- to‘kin-sochinlik, boylik

Olma - muhabbat

Novda- boylik, farovonlik

Yaproq- bahorgi uyg‘onish, Navro‘z

Atirgul- go‘zallik ramzi

Isiriq - yomon ko‘zdan asrash

Lola - bahor belgisi

Shobarg- bahorgi uyg‘onish ramzi

To‘lqinsimon gul poyasi - boylik va farovonlik ramzi.

Bodom – baxt iqbol ramzi. U tabiatdan stillashtirib tasvirlangan islmiy naqsh turi. Pechak islmi - oddiy hoshiya naqsh turi bo‘lib, tuzilishi jihatidan novda yo‘l davomida to‘lqinsimon bir tomonga o‘sib, barg va gul chiqarib, o‘sib boradi.

Inson hayoti bir xil kechmasligi ramziy ma’nosiga ega. Seryaproq atirgul yoshlikning nazokatini anglatadi. Oq atirgul – bokiralik. Pushtirang atirgul niholi–yoshlikning gulday ochilishi. Mimozi – kamtarlik. Bo‘tako‘z – xotiralar.

Marvaridgul – baxt. Liliya – tozalik. Moychechak – nafrat, nastarin – tark etilgan. Lola – muhabbat izhori.

3. Qush va hayvonlarning ramziy ma'nolari.

Sher - mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik,

Tulki - makkorlik, ayyorlik,

Chumoli - donolik, hokisorlik,

Bulbul - sadoqat,

Xumo - baxt qushi,

Boyqush - baxtsizlik, vayronalik.

Baliq- hushyorlik, halol luqma.

Sichqon- uy hayvonlarining ko'payishi ramzi.

Echki va qo'chqor- jasurlik, mardlik, pokizalik, hotam Saxiylik.

Oq kabutar- tinchlik.

Ohu - go'zallik, himoyasizlik. Tuxum -Birlik.

Dev -Makkor, g'azabkor, buzg'unchi maxluq bo'lib, ezgulikka qarshi kurashuvchi yomonlik, yovuzlik ramzi.

Ilon- Yomonlik.

Quyovon -Ziyraklik

Humo - davlat (boylik) qushi, afsonaviy qush, baxtu-iqbol ramzi hisoblanib, aynan shu ramziy ma'nosi sifatida O'zbekiston Davlat gerbida ham o'z o'rniga ega.

O'zbekiston Respublikasi davlat tamg'asida mavjud sakkiz burchak- musamman ichida ham oy va yulduz aks ettirilgan. Bayrog'imizda bir oyu o'n ikki yulduz bor. Yilimiz -o'n ikki oy. Qadimul ayyomdan o'n ikki oyda yil almashadi. Demak, oyu-yulduzlarimiz abadiylik, ya'ni boqiy mustaqilligimiz ramzi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan bugungi kun yoshlarining qadimiy tariximizni chuqur o'rgangan holda, uchinchi renesans barpo etishlari uchun yanada yangi bilimlar va yangi kashfiyotlar ustida izlanishlari yo'lida ham yoshlarga, ham ustozlarga cheksiz imkoniyatlar yaratilayotgani tahsinga sazovor. Yuqorida milliy merosimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining naqqoshlikda foydalanilgan bir qancha naqsh turlarini ramziy ma'nolari keltirilgan. Bu maqola bugungi kun yoshlarining milliy naqshlarimizni ma'no-mazmunini tushunib yetishlariga naqqoshlik yo'nalishidagi bilimlarini ortishiga ozgina bo'lsa ham zamin yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T., "Ma'naviyat" 2008.
2. Anuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - T.: 1968.
4. Bulatov S.S. «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati». - T., «Mehnat». 1991.
5. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. - Toshkent: Cho'lpon, 1999.

6. Nig'monov B.V, Ermatova A.B. "Naqshi-nigoralar". Nizomiy nomidagi TDPU, T.: Metodik qo'llanma 2010.
7. Rempel L.I «Arxitekturiy ornament Uzbekistana». –T., «Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoe literaturi». 1961.
8. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977.
9. O'zbek milliy entsiklopediyasi. «O'zbek milliy entsiklopediyasi» nashriyoti 1-12 tom. T., 2000-2007.
10. Qosimov Q. Naqqoshlik. –T.: O'qituvchi, 1990.
11. Qosimov Q. Naqqoshlik: Badiiy shakl to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi. (To'garak rahbarlari uchun qo'll.) -T.: O'qituvchi, 1982.